

## BAXT ODDIYLIKDA

*Ismoilova Malika Ismoilovna  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada baxt, shuningdek uning hozirgi hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar;** Baxt.

Baxt har kimning tasavvurida har xil tushuncha. Kimdur baxtni moddiy tomonlama ko'rsa, boshqalari esa oddiy narsalarda ko'ra biladi. Aslini olganda kim nimaga ehtiyoj sezsa, baxt ana shunda. Masalan, kuni kecha bobom bilan suhbatlashdim va baxt nimada deya so'radim. Shunda quyidagi ajoyib javobni oldim: "Qizalog'im, baxtni hamma o'zicha tushunadi, men uchun baxt bu mana shu bir burda nonning tomog'imdan qiyinchiliksiz o'tishidir"

Darhaqiqat, bu so'zlar qanchalik to'g'ri . Bir tomondan xalqimizda shunday naql bor "Qari bilganni pari bilmas"

Baxt nihoyatda katta tushuncha, har bir inson o'zining muammosini, uning yechimini topish yoki darkor narsaga erishishni baxt deb bilishiga haqqi bor. Baxtli odamlar nafaqat o'zлari uchun, balki boshqalar uchun yaxshilik qilishadi. Ular birovning xolisona hojatini chiqarsa, og'irini yengil qilsa o'zlarini baxtli his qiladilar. Bog'chaga boradigan bola bir kun uyida qolsa, bog'chaga bormasa katta baxt. Baxtni har kim o'zicha, har xil tasavvur qiladi, biroq bu tushuncha qamrovi bizning tafakkur doiramizdan ancha keng va uni birgina hol bilan ifodalab bo'lmaydi.

Zero, insonning dunyo kelishi baxt! Kimgadir sevganiga uylanish-baxt! Farzandli bo'lish-baxt!